



# INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI METAFORIK BIRLIKLARNING QIYOSIY TADQIQI

## COMPARATIVE STUDY OF METAPHORICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Farg'ona Davlat Universiteti

Abdupattoyev Muhammadtohir Tojimamatovich

Lingvistika, ingliz tili 2-kurs magistranti

Azimova Nafisa Abdukobulovna

Shermatova Gulnora Musallamovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqola metafora haqida keng fikr yuritib, batafsil ma'lumot beradi. Maqola metafora so'zining izohli lug'ati bilan ham tanishtirib, o'zbek tilidagi bir nechta metaforik birlik asoslarini ingiliz va o'zbek tillarida qiyosiy tadqiq qiladi. Shuningdek, metaforik birliklarni yoritib o'tadi va bu bo'yicha turli namunalar keltiriladi. Nazariyalar misollar orqali yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** metafora, metaforik birlik, qiyosiy tadqiq, badiy sanat turi, ko'chim, metaforizatsiya.

**Abstract:** This article gives detailed information about metaphor. The article also introduces the explanatory dictionary of the word metaphor, and conducts a comparative study of the foundations of several metaphorical units in the Uzbek language in English and Uzbek languages. It also highlights metaphorical units and provides various examples. Theories are illustrated through examples.

**Key words:** metaphor, metaphorical unit, comparative study, art form, transfer, metaphorization.

Badiiy matnda leksik sathdagi ko'chim (trop)lar nihoyatda katta ahamiyatga ega, ular badiiy mazmunni ifodalashda eng faol vositalardir. Ayniqsa, ko'chimlar orasida metafora muhim va keng qo'llanuvchi vosita sifatida tilimizda badiiy tasavvurlarining



natijalari asosida yuzaga kelgan. Metaforalarning lisoniy, mazmuniy va uslubiy xususiyatlari o'zbek tilshunosligida ancha keng o'rganilgan.

Tilda ilgari mavjud bo'lган nomning muayyan o'xhashlik asosida yangi ma'no uchun qo'llanishi oddiy nominatsiya vazifasinigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ana shunday ko'chimlardan biri metaforadir.

O'zbek leksikologiyasi va uslubshunosligida ancha mukammal ishlanishi lozim bo'lган masalalardan biri metaforadir. Predmetlar orasidagi umumiyligi o'xhashlikka asoslangan holda ma'no ko'chirish metafora bo'lib, bunda asosiy (bosh) belgi narsa va hodisalar orasidagi qaysi bir tomon bilan o'xhashlikdir.

Metafora ancha murakkab ma'no ko'chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslari, ham adabiyotshunoslari diqqatini o'ziga jalgan etib keladi. Bu ma'no ko'chishga tilshunoslari ko'p ma'noli so'zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondoshsalar, adabiyotshunoslari esa polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalar (o'xshatish, sifatlash, majoz istiora)ni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo'naliishda ham maqsad bitta, u ham bo'lsa, so'zning ko'p ma'noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o'rganishdir.

So'zning ko'p ma'nolilagini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bir so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma'no ko'chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi.

So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviri vosita sifatida keng qo'llanadi.

Binobarin, metaforik munosabat ma'lum sharoitda, ma'lum voqealari-hodisani "tasvir etishda ikki predmet yoki hodisa o'rta sidagi umumiylikkal asoslangan holda belgilanadi. Ular o'rta sidagi umumiyligi ko'rinishlar, hislatlar biridan ikkinchisiga



ko`chiriladi. Bunda asosan obrazli tushunchalar yuzaga keladi. Masalan: *Arslonov xafa edi!... Uning xayolida allaqanday ko`kish toshlar qalashib yotgan. Ko`ktoshda bir vulqon portlashga hozirlanayapti-yu, oldi olinmasa, dahshat yuz beradigandek!...* (Sh.Xolmirzayev.«Qil ko`prik», 32-bet). Shahar osmonida aylangan qora bulutlar tarqab, baayni quyosh chiqadi. Qon, dahshat isi kelib turgan shaharda to`y-tomosha boshlanib ketadi. («Qil ko`prik», 57-bet). Ushbu matnlarda vulqon, qora bulut, quyosh kabi so`z va so`z birikmalari metaforik munosabatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Aslida, urush va tinchlik ma`nolari ifoda etilgan hamda fikrga badiiy tus berilgan. Badiiy nutqqa esa obrazlilik va o`ta kuchli emotsiya ifodasi o`z ta`sirini ko`rsatgan.

Yovvoyi qushlar, uy parrandalari nomlarini anglatuvchi ko`pgina leksema-lar ham metaforik ma`noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ko`pgina holatlarda qushlarga xos ba`zi bir salbiy xatti-harakatlardagi ma`no ifodalashda metaforik munosabat yuzaga keladi. Bunday holatda ma`noda ekspressiv-emotsionalik yanada kuchayadi hamda badiiy ta`sirchanlik oshib boradi. Bunday qo`llashishlar ham yozuvchi ijodi uchun xarakterli bo`lib, buni quyida berilgan matn orqali ham anglab yetish mumkin:

- *Chiq. - Qayum kameraga ko`z solib, iziga qaytdi. - Yerda yotibsan. Senga ko`rpacha solib bergen, edim... E, qurib ket! Sig`sa ichingda! O`zing tappa-tuzuk yigitsan!... E! Xamrohing qarg`a bo`lsa, yeganing axlat bo`ladi....*<sup>4</sup>

Keltirilgan matnda qarg`a so`zi semantikasida salbiy ma`no ifodasi mavjud bo`lib, hamrohining yomon ekanligiga ishora qilingan. Demak, bu o`rinda qahramonning tinglovchiga munosabatining salbiylici ushbu metafora orqali ochilgan. Ayni paytda, so`zlovchining bu holatdan achinayotganligi, hamrohining o`ziga ham yomonlik olib kelayotganligini ta`kidlash ishorasi bor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аристотель. Риторика. Поэтика. –М.: Лабиринт, 2000; Цицерон Нотиқлик санъати ҳақида икки рисола. –Т.: 2007.  
– Б.299.

<sup>4</sup> Sh.Xolmirzayev. "Og`ir tosh ko`chsa", 134-bet



2. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс.//Теория метафоры. – М.: 1990. –С. 5;  
Жирмунский В.М. Метафора в поэтике русских символистов // Новое  
литературное обозрение. – 1999, -№1.

3. Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти,  
1979; Расулов Т. Бадиий асар қанотлари. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977;  
Мамажонов С. Шеърият баҳсида. – Т.: Адаб. ва санъат нашриёти, 1972; Акрамов  
Б. Шеърият гавҳари. (Лирикада образ муаммоси). – Т.: Адабиёт ва санъат  
нашриёти, 1979; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. –Т.: 1983; Раҳимжонов Н.  
Давр ва ўзбек лирикаси. -Т.: Фан, 1979; Ғафуров И. Лириканинг юраги. – Т.: 1982  
ва бошқалар.

4. Миртоҗиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан., - 1975. – Б.140;  
Миртоҗиев М. Лингвистик метафоралар таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.,  
1973.- № 4. – Б. 33-37.

5. Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини:  
Филол.фанлари номзоди ... автореф. – Тошкент, 2000; Қобулова У.С. Метафорик  
матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати: Филол.фанлари  
номзоди... автореф. – Тошкент, 2007 ва бошқалар. Тўланова Н.М. Ҳозирги ўзбек  
шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол.фанлари  
номзоди ... автореф. – Тошкент, 2008;